

SINGAPUR POLITSIYASI VA UNING JAMOATCHILIK POLITSIYASI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ TAJRIBASI

Azizov Davron Abduganiyevich

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi masalalari
ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i o‘rinbosari

ANNOTATSIYA

Maqolada Singapur politsiyasining tarkibiy tuzilmasi, u to’qnash kelayotgan chaqiriqlar va tatbiq etilayotgan zamonaviy yechimlar, shu jumladan Singapur misolida Jamoatchilik politsiyasi, uning ishlash mexanizmlari, mazkur chorani amalga oshirishda davlat va jamoatchilik hamkorligi hamda ular o‘rtasida o‘zaro ishlarni muvofiqlashtirish jarayoni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Singapur Politsiya Kuchlari, jamoat xavfsizligi, jinoyatchilikni oldini olish, operativ politsiya, patrul politsiyasi, tergov, markazsizlashtrish, jamoatchilik politsiyasi, mahalla politsiya postlari, jamoatchilik fokus rejaları.

THE SINGAPORE POLICE AND ITS EXPERIENCE RELATED TO COMMUNITY POLICING PRACTICES

ABSTRACT

This article highlights the organizational structure of the Singapore Police, the challenges it faces and the modern solutions implemented, including the Community Police in the case of Singapore, its working mechanisms, state-public cooperation in the implementation of this measure, and the process of coordination of mutual work between them.

Key words: Singapore Police Force, public safety, crime prevention, operational policing, patrol policing, investigation, decentralization, community policing, neighborhood policing posts, community focus plans.

Singapur qisqa o‘ttiz yillik vaqt ichida kambag‘al Uchinchi dunyo mamlakatidan yuqori sanoatlashgan iqtisodiyotga ega davlatga aylandi. Yaxshi ta’lim ko‘rgan va ta’siri tobora ortib borayotgan singapurliklar davlat xizmatlari sifati va samaradorligi bo‘yicha yuqori standartlarni talab qilishmoqda. Shu o‘rinda ular politsiya ofitserlarining jamoat tinchligi va xavfsizligini saqlashda to‘g‘ri, qat’iy va ishonch bilan harakat qilishini kutadi.

Singapur Politsiya Kuchlari (SPK) Ichki Ishlar Vazirligi tasarrufidagi tashkilot bo‘lib, uning asosiy vazifasi jinoyatchilikni aniqlash, oldini olish va Singapur xavfsizligini ta’minlashdan iborat. Mazkur politsiya faoliyati 5 ta muhim yo‘nalishda - Operativ politsiya, Jinoyatchilikka qarshi kurash va Kiberxavfsizlik, Tergov, Fuqarolar ishtiroki va Jamoat xavfsizligi orqali amalga oshiriladi. Politsiyaning shiori – Singapurni dunyodagi eng xavfsiz joyga aylantirish.⁶⁶

Singapur Politsiya Kuchlarining infratuzilmasi uning Bosh qarorgohi, uning 6 ta bo‘linma shtab-kvartirasi, 32 ta Mahalla Politsiya markazlari va 65 ta Mahalla Politsiya postlarini o‘z ichiga oladi. Uning boshqa muhim obyektlari - bu Yo‘l Politsiyasi, Aeroport politsiyasi, Gurxa kontingenti, Maxsus operatsiyalar boshqarmasi, Politsiya qirg‘oq qo‘riqlash xizmati va boshqalar. Umuman olganda, Singapur Politsiya Kuchlari orol bo‘ylab 128 ta operatsion obyektni boshqaradi.⁶⁷

Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatchilarni reabilitatsiya qilish har bir jamiyatda mavjud masala bo‘lib, Singapur bundan mustasno emas. Garchi jinoyatlarning tabiatи va jinoyatchilarga nisbatan munosabat bir mamlakatdan boshqasiga qarab o‘zgarishi mumkin bo‘lsada, jinoyatchilikning oldini olishning dolzarbliyi va jinoyatchilarni samarali reabilitatsiya qilish barcha mamlakatlardagi huquqni muhofaza qilish va sud organlari uchun umumiyydir.

Singapurda jinoyatchilik darajasi haligacha dunyodagi eng past ko‘rsatkichlar orasida bo‘lishda davom etmoqda. Singapurdagi eng ko‘p jinoyatlar ulushini talonchilik, o‘g‘irlik, transport vositalarini o‘g‘irlash, zo‘ravonlik tashkil etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu jinoyatlarning ko‘pchiligi tasodifiy va rejalashtirilmagan tarzda sodir etilgan.⁶⁸

1950-yillardan to 1970-yillarning boshlarigacha bo‘lgan notinch davrda Singapur Politsiya Kuchlari o‘sha davrni belgilagan ijtimoiy, irqiy va siyosiy tartibsizliklarni bostirishda muhim rol o‘ynadi.

SPK tarixiy ma’noda har bir xodimga Singapurga sodiqlik bilan xizmat qilish hissini singdirgan. Shu tariqa, 1996-yil may oyida Gonkongda joylashgan Siyosiy va iqtisodiy xatarlarni baholash kompaniyasi Singapurni Osiyodagi eng xavfsiz davlat sifatida baholadi. Kompaniya Singapurni “chet elliklar va mahalliy aholi kunning istalgan vaqtida va istalgan joyida, gangsterlar tomonidan tunab ketilishdan qo‘rmasdan”, “professional va yaxshi maoshli” politsiya kuchlariga ishongan holda sayr qilish mumkin bo‘lgan dunyodagi kam sonli shaharlar qatoriga qo‘shadi.⁶⁹

⁶⁶ Singapore Police Force. "Mission and vision." 2022. <https://www.police.gov.sg/who-we-are/mission-and-vision>.

⁶⁷ Hu Khoo Boon. "Force for the nation." 2021. https://www.enterprisesg.gov.sg/-/media/esg/files/quality-and-standards/business-excellence/sqa_spf_2007_with_special_commendation_summary_report.pdf.

⁶⁸ Rose Hirschmann. "Theft and related crime rates of Singapore from 2012 to 2021." 2022. <https://www.statista.com/statistics/628515/theft-and-related-crime-rates-in-singapore/>.

⁶⁹ Singapore EDB. "A great place to live." 2022. <https://www.edb.gov.sg/en/why-singapore/a-great-place-to-live.html>.

Mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, yuqori iqtisodiy o'sish va farovonlik ko'p jihatdan Singapurdagi vakolatli va xolis politsiya kuchlari bilan bog'langan. Singapur politsiyasi jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashish uchun tinimsiz harakatda bo'lib, yuqori saviyada ish olib bormoqda. Singapurda jinoyatchilikni yo'q qilishni ichiga olgan o'zining asosiy vazifalaridan tashqari politsiya, shuningdek, odamlarga o'zlarini ham jamoat xavfsizligini ta'minlashda bevosita ishtirok etuvchi ekanligi bo'yicha tushuntirish ishlari olib boradi. Politsyaning zo'ravon va ta'qibchi sifatida qaralgan davrlari ortda qolgan. Shuningdek, Politsiya va jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlar jamoat politsiyasi orqali mustahkamlangan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki qariyb uchdan bir qism yirik jinoyatlar bo'yicha hibsga olish ishlari jamoatchilik vakillarining yordami bilan amalga oshiriladi.⁷⁰

Mahalla politsiya postlari 1983-yildan buyon Singapurda aholi zinch joylashgan uy-joy massivlarida patrul politsiyachilar faoliyat ko'rsatuvchi baza hamda politsiya va jamoatchilikning aloqa nuqtasi sifatida kechayu kunduz xizmat ko'rsatadi. Mahalla politsiya postlarining maqsadi ikkita:

Singapurda politsiya-jamiyat munosabatlarini yaxshilash, jamoatchilik yordами va qo'llab-quvvatlashi bilan jinoyatchilikning oldini olish va yo'qotish.⁷¹ Bu postlarda faoliyat olib boruvchi politsiya xodimlari mahalliy aholining talablariga muvofiq har qanday favqulodda holatni hal qilish uchun doimiy shay holatda.

Politsiya va jamoatchilik qator ildiz otgan muammolarga to'liq yechim taqdim etish maqsadida qo'shma rejalar ishlab chiqib, Jamoatchilik fokus rejalarini amalgalashda yaqindan ish olib boradi. Jamoatchilik fokus rejalarini qo'shma tashabbuslar, dasturlar va loyihalarini belgilaydi va politsiya harakatlarini qayta yo'naltiradi. Politsiya va jamoatchilik o'rtasidagi muloqot uchrashuvlari an'anaviy huquqbuzarlik holatlari to'g'risida xabar berishdan farqli ravishda ayni vaqtida ochiq muhokama va dialog ustiga qurilgan.⁷²

Mahalla politsiya postlari tizimi orqali Jamoatchilik politsiyasining joriy etilishi politsiya sohasida inqilobiy o'zgarishlar olib keldi. Birinchidan, u o'zgardi, ya'ni hodisaga asoslangan reaktiv yondashuvdan jinoyat sodir bo'lishidan oldin uning sodir etilishi ehtimolini oldini olishga yo'naltirilgan proaktiv yondashuvga o'tdi. Jamiyat hozirda jinoyatchilikning oldini olishda muhim rol o'ynashga safarbar etilgan. Mahalla politsiya postlari tizimining yana bir ta'siri bu politsiya funksiyalarini markazdan

⁷⁰ Belmont Lay. "S'pore 2021 crime trend: Fewer robbery, snatch theft, housebreaking crimes, but more scams." *Mothership*. 2022.

<https://mothership.sg/2022/01/singapore-crime-police-trend-2021/#:~:text=%22The%20community%20has%20been%20an,launched%20the%20Community%20Watch%20Scheme.%22>.

⁷¹ Deniz Kocak. "Bringing the Community Policing Paradigm to Singapore and Timor-Leste." *JSTORE*. 2022.

https://www.jstor.org/stable/j.ctv6zdc57.11#metadata_info_tab_contents.

⁷² Deniz Kocak. "Bringing the Community Policing Paradigm to Singapore and Timor-Leste." *JSTORE*. 2022.

https://www.jstor.org/stable/j.ctv6zdc57.11#metadata_info_tab_contents.

mahalla darajasiga tushirildi.⁷³ Endilikda politsiya o‘z vazifalarini bajarishda katta avtonomiyaga ega bo‘ldi. Bu esa uning jinoyatga qarshi kurashda operativ kuchga aylantirdi hamda xizmat sifatining yaxshilanishiga sabab bo‘ldi.

Markazsizlashtirish tamoyili, shuningdek, politsiyaga jamiyat ichiga chuqurroq kirib borish va shu orqali kriminogen sharoitlarning yetilishiga samarali qarshi kurashish imkonini berdi. Shu tariqa politsiya uchun odamlar va jinoyatchilikni keltirib chiqaradigan sharoitlar haqida qimmatli ma’lumotlarni olish imkoniyati vujudga keldi.⁷⁴

Jamoatchilik politsiyasi avtomobilda patrullik qilishdan ko‘ra ko‘proq piyoda va velosipedda patrullik qilishga urg‘u berdi. Uylarga tashriflar politsyaning jamiyatga ancha yaqinroq bo‘lishiga olib keldi. Mahallalarda Politsyaning ko‘proq ko‘rinish berishi jinoyatlarni qisqartirishga va jamiyatda jinoyatchilikka nisbatan umumiyoq qo‘rquvni yo‘qotishga yordam berdi. Bu har yili jinoyatchilik darajasining pasayib borish ko‘rsatkichida ham qayd etildi.⁷⁵

Xulosa qilib aytganda, Jamoatchilik politsiyasi bilan jamoatchilik huquqbazarliklarning oldini olish va ularni aniqlashdagi o‘zlarining roli va mas’uliyati to‘g‘risida ko‘proq xabardor bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Jamoatchilik yordami bilan hibsga olinganlar jami hibsga olinganlarning 1/3 qismini tashkil etdi. Yaqin sheriklik nafaqat jamoatchilikning kuchli xohish irodasini aks ettiradi balki jamoatchilik va politsyaning jinoyatchilikka qarshi kurashda o‘zaro hamkorligining rivojlanib borayotganligini ko‘rsatadi. Bir so‘z bilan aytganda, Singapur Politsiya Kuchlari jamoatchilikning politsiyaga bo‘lgan ishonchini mustahkamladi. Jinoyatchilikka qarshi kurash uchun dunyo bo‘ylab eng yaxshi amaliyotlarni izlash hamda innovatsion va amaliy g‘oyalarni ishlab chiqish har doim politsiya faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Jumladan, Singapur Politsiya Kuchlari 1980-yillarda jamoatchilik politsiyasi joriy etila boshlagan paytdan boshlab radikal transformatsiyaga uchragan. Ijtimoiy-siyosiy maydonning tobora tez o‘zgarishi bilan Politsiya kuchlariga nisbatan umidlar o‘sib borishi tabiiy. Biroq bir narsa aniqki, tashkilotlar bardoshlilikni kuchaytirish uchun o‘rganilgan darslarni tatbiq etishi va o‘zgarishlarga moslashish uchun innovatsiyaga intilishi kerak.

⁷³ Ministry of foreign affairs. "Towards a sustainable and resilient Singapore." 2021.

https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/19439Singapores_Voluntary_National_Review_Report_v2.pdf.

⁷⁴ Anthony Braga. "New Perspectives in Policing." 2020. <https://www.ojp.gov/pdffiles1/nij/248888.pdf>.

⁷⁵ Bureau of Justice Assistance. "Understanding Community Policing." 2018. <https://www.ojp.gov/pdffiles/commp.pdf>.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Anthony Braga. "New Perspectives in Policing." 2020.
<https://www.ojp.gov/pdffiles1/nij/248888.pdf>.
2. Belmont Lay. "S'pore 2021 crime trend: Fewer robbery, snatch theft, housebreaking crimes, but more scams." Mothership. 2022.
<https://mothership.sg/2022/01/singapore-crime-police-trend-2021/#:~:text=%22The%20community%20has%20been%20an,launched%20the%20Community%20Watch%20Scheme.%22>.
3. Bureau of Justice Assistance. "Understanding Community Policing." 2018.
<https://www.ojp.gov/pdffiles/commp.pdf>.
4. Deniz Kocak. "Bringing the Community Policing Paradigm to Singapore and Timor-Leste." JSTORE. 2022.
https://www.jstor.org/stable/j.ctv6zdc57.11#metadata_info_tab_contents.
5. Ministry of foreign affairs. "Towards a sustainable and resilient Singapore." 2021.
https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/19439Singapores_Voluntary_National_Review_Report_v2.pdf.
6. Ministry of Home Affairs. "Parliamentary Debate on the Motion "Commemorating 200 Years of the Singapore Police Force" ." 2021.
<https://www.mha.gov.sg/mediaroom/parliamentary/parliamentary-debate-on-the-motion-commemorating-200-years-of-the-singapore-police-force/>.
7. Rose Hirschmann. "Theft and related crime rates of Singapore from 2012 to 2021." 2022. <https://www.statista.com/statistics/628515/theft-and-related-crime-rates-in-singapore/>.
8. Singapore Police Force. "Mission and vision." 2022.
<https://www.police.gov.sg/who-we-are/mission-and-vision>.
9. Singapore EDB. "A great place to live." 2022. <https://www.edb.gov.sg/en/why-singapore/a-great-place-to-live.html>.
10. Singh Jarmal. "COMMUNITY POLICING IN THE CONTEXT OF SINGAPORE." 2020.
https://www.unafei.or.jp/publications/pdf/RS_No56/No56_14VE_Singh1.pdf.
11. Hu Khoo Boon. "Force for the nation." 2021. https://www.enterprisesg.gov.sg/-/media/esg/files/quality-and-standards/business-excellence/sqa_spf_2007_with_special_commendation_summary_report.pdf